

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9  
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## **Bosh muharrir:**

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

## **Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

## **Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## **Tahrir hay'ati:**

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

## **Ekspertlar kengashi:**

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
<b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b> , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari .....	11
<b>Mirjamilova Hulkar Nurali qizi</b> , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish .....	15
<b>Alimov Murodkosim Achilovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili .....	20
<b>Umarov Faxriddin Umar o'g'li</b> , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati .....	26
<b>Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi .....	31
<b>Abduvakil Alimov Komil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
<b>Maxmudova Nodira O'ktamovna</b> , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari .....	43
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarining jozibadorligi tahlillari masalalari .....	46
<b>Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich</b> , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari .....	57
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish .....	62
<b>Olikulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li</b> , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
<b>Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ</b>	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi .....	73
<b>Usmonov Botir</b> , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish .....	78
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
<b>Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich</b> , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds .....	87
<b>Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev</b> , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies .....	92
<b>Shakhzod Saydullaev</b> , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi .....	101
<b>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
<b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich</b> , i. f. d. (DSc); <b>Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b> , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
<b>Eldor Uskanov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish .....	114
<b>Maxmudov Nosir Maxmudovich</b> , professor; <b>Elmurodov Faxriddin Farxodovich</b> , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari .....	120
<b>Ergashev Otamurod Toshtemirovich</b> , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar .....	125
<b>Ermatov Musojalil Komilovich</b> , kafedrasi dotsenti v. b.; <b>Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich</b> , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach .....	132
<b>Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich</b>	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
<b>Akobirova Nodira Najmuddin qizi</b> , asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
<b>Alimova Guzal Alisherovna</b> , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari .....	146
<b>Jo'rayeva Sevara Zakirovna</b> , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli .....	152
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b> , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability .....	156
<b>Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna</b> , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
<b>Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
<b>Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept .....	175
<b>Otakulov Makhamadjon</b> , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari .....	181
<b>Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi</b>	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida .....	185
<b>Sadikova Ra'no Abdullayevna</b> , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish .....	188
<b>Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni .....	191
<b>Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
<b>Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li</b> , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari .....	203
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich</b> , dotsent; <b>Adilbekov Allayar Anvarbekovich</b> , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni .....	206
<b>Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
<b>Алиева Надирахон Абдумаликовна</b> , PhD. доц.; <b>Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи</b> , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
<b>Z. G. Allaberganov</b> , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
<b>Asatullayev Xurshid Sunatullayevich</b> , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
<b>Axmedova Yulduz Sunatullayevna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari .....	232
<b>Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna</b> , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 <b>Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 <b>Berdiev Akram O'ktamovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi .....253 <b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari .....258 <b>Botirov Erkinjon Xayitovich</b> , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish .....263 <b>G'aybullayev Odil Baxtiyarovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....269 <b>Jubanova Bayramgul Aymuratovna</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 <b>Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li</b> , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 <b>Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari .....284 <b>Qurbanova Shaxrinoz</b> , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar .....288 <b>Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna</b> , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari .....292 <b>Mamirjon Jalollidinov</b> , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала .....297 <b>Муминов Шохжакон Суюнович</b> , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана .....302 <b>Муятдинов Махмуд Жалелович</b> , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 <b>Назарова Гузал Баходировна</b>	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 <b>Nozima Abdullayeva</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 <b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 <b>Тажимуратов Умид Рузматович</b> , <b>Бахриев Иброхим Исометдинович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Жуманиёзов Эркин Худойберганович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Тажимуратов Рузмат Отажанович</b> , кандидат медицинских наук, <b>Тажимуратов Абдусами Умид угли</b> , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili .....333 <b>Temirov Abdulaziz Alimjanovich</b> , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 <b>Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович</b> , DSc; <b>Одилова Дилноза Барнаевна</b> , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 <b>Tosheva Ziroat Aliqul qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari .....	349
<b>To'rayeva Nafisa Odilovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
<b>Tursun Muxitovich Ahmedov</b> , i. ф. д., prof.; <b>Gavhar Rustamovna Xidirova</b> , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike .....	359
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b> , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
<b>Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich</b> , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b> , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
<b>Xayriddinov Sh. B.</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .....	385
<b>Xolov Nabijon Qaxramonovich</b> , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .....	391
<b>Xusanov Otabek Nishonovich</b> , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadliligin oshirish yo'llari.....	396
<b>Elbusinova Umida Xamidullayevna</b> , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затrat na proizvodstvo.....	401
<b>Хилола Икрамова Ровшан кизи</b> , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .....	407
<b>Bekdavlat Aliyev</b>	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....	412
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari .....	416
<b>Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
<b>Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich</b> , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
<b>Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna</b>	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития .....	431
<b>Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна</b> , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .....	440
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubayevich</b> , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari .....	446
<b>Bobirjon Aktamov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
<b>Axmedov Sayfullu Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
<b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>	



# O'ZBEKISTONDA TRANSPORT VA LOGISTIKA SOHASINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

**Usmonov Botir**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistri



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada transport va logistika sohasini raqobatbardosh sharoitda tashkil etish, aholi va iqtisodiyot ehtiyojlar uchun yuk tashishni tizimini rivojlantirishga oid fikrlar yoritilgan. O'zbekiston transport tizimida yangi texnologiyalarini joriy etish, xizmatlarning sifatini yaxshilash, temir yo'l orqali temiryo'l transportini rivojlantirishni bo'yicha amaliy takliflar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** transport tizimi, logistika, raqamli texnologiyalar, yuk tashish, transport xizmatlari.

**Abstract:** This article discusses the issues of organizing the transport and logistics complex in competitive conditions, developing a cargo transportation system for the needs of the population and the economy. Practical proposals are given for the introduction of new technologies into the transport system of Uzbekistan, improving the quality of services, and developing railway transport by rail.

**Key words:** transport system, logistics, digital technologies, cargo transportation, transport services.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы организации транспортно-логистического комплекса в конкурентных условиях, развития системы грузоперевозок для нужд населения и экономики. Даны практические предложения по внедрению новых технологий в транспортную систему Узбекистана, повышению качества услуг, развитию железнодорожного транспорта железнодорожным транспортом.

**Ключевые слова:** транспортная система, логистика, цифровые технологии, грузоперевозки, транспортные услуги.

## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biri tovar va xizmatlarning jahon bozoriga izchillik bilan kirishidan iboratdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni kursatadiki, transport aloqalari jahon bozoriga kirib borishinijadallashtirishning muhim omildir. O'zbekiston temiryo'l transportining asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyoti va aholining tashishga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida va to'liq qondirishdan iborat. Bozor iqtisodiyoti hamda xalq xo'jaligining moliya tizimi izdan chiqishi, ishlab chiqarishning tushib ketishi, asosiy tarmoqlarga kapital joylanishining qisqarishi bilan tavsiflanadigan bugungi holatida avvalgi maqsadlar bilan birga, birinchi o'ringa, ko'rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini oshirish, tubdan yangicha raqobatbardosh transport xizmatlarini taqdim etish zarurati chiqib keladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng transport majmuasi aloqalariga e'tibor kuchaydi. O'zbekiston geografik o'rni dengizlar, portlar va yirik transport tarmoqlariga bevosita chiqish yo'llarining yo'qligini e'tiborga oladigan bo'lsak, transport chiqish tizimlari va aloqalarini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar va masalalarni hal etish ustuvor strategik ahamiyat kasb etishi malum bo'ldi. Shularni hisobga oladigan bo'lsak, mamlakatning transport salohiyatini oshirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlantirilishini amalga oshirishning asosiy omili ekanligini alohida qayd etish lozim.

Tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Buning uchun xorijiy sarmoyalilar va ilg'or texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz zarur bo'ladi<sup>[1]</sup>.

O'zbekiston temiryo'l transportining asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyoti va aholining tashishga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida va to'liq qondirishdan iborat. Bozor iqtisodiyoti hamda xalq xo'jaligining moliya tizimi izdan chiqishi, ishlab chiqarishning tushib ketishi, asosiy tarmoqlarga kapital joylanishining qisqarishi bilan tavsiflanadigan bugungi holatida avvalgi maqsadlar bilan birga, birinchi o'ringa, ko'rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini oshirish, tubdan yangicha raqobatbardosh transport xizmatlarini taqdim etish zarurati chiqib keladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Transport tizimi, shu jumladan temiryo'l transportining mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'rnini baholash, uning faoliyati samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha I. V. Belov, G. P. Bublik, G. A. Golts, M. A. Ikramov, L. V. Kantorovich, B. M. Lapidus, L. B. Mirotin, M. N. Nazarov, G'. A. Samatov, N. Tabakov, N. P. Tereshina, M. F. Truxunkov, N. Babaxalov, M. L. Fayzixo'jayeva, K. O'. O'jaboyev, G'. M. Qosimov va boshqalar kabi xorijiy va mamlakatimiz olimlari izlanishlarni amalga oshirganlar. Jumladan, transport logistikasining asosiy tamoyillari orasida jami xarajatlar tamoyilini alohida ta'kidlash kerak, operatsion logistika xarajatlari (transport, omborxonalar, yuklarni qayta ishlash va boshqalar), boshqaruv xarajatlari, logistika xatarlarini sug'urta qilish va potensial zarar (potensial yo'qotishlar) noto'g'ri logistika qarorlaridan ko'rildigani zararlar, pul mablag'larini immobilizatsiya qilish uchun sarflangan xarajatlar ajratib ko'rsatish muhim o'r'in tutadi [2].

Shu bilan birga zamonaviy bozor sharoitida transport texnologiyalarini takomillashtirish xizmatlarning sifatini yaxshilash, temiryo'l orqali temiryo'l transportini rivojlantirishni tezlashtirish raqobatbardosh transport xizmatlarini taqdim etmasdan amalga oshirilishi mumkin emas. Kompaniyaning raqobatbardoshligini aks etti-ruvchi omillarni tahlil qilish bizga yuklarni jo'natuvchi va qabul qiluvchilar uchun afzallikkarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi, transport bozorida transport jarayonida yangi ishtirokchilar paydo bo'lishini kuzatish imkonini beradi [3].

Transport tizimida ortiqcha turib qolish vaqtini qisqartirish uchun optimal yechim – bu sostav tarkibini konteynerli poezd holatiga keltirish, bunda yuk turlarini optimal darajada saralangan holatda qabul qilib kerakli yo'nalish bo'yicha jo'natish ko'zda tutiladi hamda yuk jo'natuvchilariga shu bo'yicha maslahatlar berish yo'l xarajatlarini qisqarishiga olib keladi [4].

Ushbu tadqiqotlarda transportning rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish, nafaqat tarmoq uchun, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun muhim ahamiyatga egadir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, kompleks baholash, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalilanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Transport tarmoqlarini yaxshilanishi mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bilan bir qatorda mamlakatning turistik salohiyatining ham samarali amalga oshiruvchi manbaalardan biridir. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish eksportni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi va mamlakatning mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishni transportsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Jahonda yuk tashishning sezilarli qismi suv, temiryo'l va avtotransporning o'zaro munosabatlarda amalga oshiriladi. Bu turdag'i transport tashuvlari multimodal transport turlari deb atalib, bugungi kunda multimodal transport tashuvlari uchun eng mukammal tashuv turi bu konteynerli tashuvlardir. Konteynerli tashuvlarning keng tarqalishiga ularning afzallikkari sabab bo'lmoqda, bular: yuklarni manziliga yetkazishning yuqori xavfsizlik darajasi, multimodallikka ya'ni aralash transport tashuvlariga yuqori moslashuvchanlik, turli taminot zanjirini tanlash imkoniyati, yuqori ishlash tezligi va yuk va transport xarajatlarini va umumiy transport narxini kamaytirish imkoniyati. Bugungi kunda dunyoda konteyner jo'natmalari o'ttacha hisobda yiliga 10–12% miqdorda rivojlanmoqda. Quruqlikda tashiladigan jami yuklarning 50–60 % i konteynerli tashuvlarga to'g'ri keladi. Bugungi kunda jahon talablari va standartlariga mos kelish logistika kompaniyalari uchun eng muhim shartlardan biriga aylandi, zero "eshikdan – eshikkacha" principiga muvofiq ishlash logistika korxonalarini jahon maydoniga chiqishini nazarda tutadi.

Hozirda transport va logistika sohasida dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan to'g'ridan to'g'ri aloqalar yo'lda qo'yilgan bo'lib ushbu aloqalar O'zbekiston Respublikasi hududida va MDH davlatlarida transport va logistika sohasiniravnaq uchun xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston temir yo'l tarmoqlarining yagona tizimiga ega ekanligi hisobga olnsa konteynerli yuk tashuvlarining zamonaviy talablarga moslashishi uchun to'liq imkoniyat mavjud. Temiryo'l tarmoqlari miqyosida AQSh, Angliya, Fransiya va Germaniya tajribalari o'rganilgan bo'lsa, konteynerli tashuvlarda dunyoning yetakchi korxonalaridan "Maersk Line" (Daniya), "Mediterranean Shg Co" (Shvetsariya), "CMA CGM Group" (Fransiya) va "Transkonteyner" AJ (PAO) (Rossiya) konteyner operatorlarining tajribalarini qayd etish mumkin. Ma'lumki, ushbu korxonalar asosan dengiz transporti orqali tashishlarga ixtisoslashgan bo'lib aynan ushbu usullarni to'laligicha O'zbekiston korxonalarida joriy etish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli ushbu korxonalarning aynan yuklarni ortish va tushirish ishlarini bo'yicha tajribalarini o'zlashtirish imkoniyati mavjud. Ushbu tajribalarni o'zlashtirib joriy etilishi konteynerli tashuvlarning sifat ko'rsatkichlarini yuqori darajaga olib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Kontreylerli tashishlarning iqtisodiy samaradorligini baholashning majmuaviy tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishda quyidagilarga e'tibor qaratilgan: kontreylerli tashishning iqtisodiy samaradorlik tizimini ishlab



chiqish qiyin masala bo'lib, u nafaqat texnik va texnologik ahamiyat bilan, balki katta sonli uchastkalar va tashishlardan manfaatdor bo'lgan tomonlar ham tashkil etadi. Bir tomonidan tashishlar texnologiyasi iqtisodiy ko'rsatkichlarini tanlashda asosiy omillardan biri sanaladi va unda tashishlarning maqsadga muvofiqligi xulosha qilish imkonini beradi. Boshqa bir tomondan esa birinchi navbatda samaradorlikni baholashga nazariy jihatdan yondoshishni aniqlash zarurati mayjud. Kontreylerli tashishda har bir konkret yondoshuv ushbu tashishda ishtirok etuvchi tomonlarning iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va boshqa turli qiziqishlarini hisobga olishi mumkin. Bundan tashqari ushbu tashishlarga joriy xarajatlar hamda kelajakdag'i rivojlanish va ifodalanishni ham hisobga olish lozim. O'z o'zidan ko'rinish turibdiki, bu turdag'i samaradorlikni kompleks baholash uchun yagona transport logistik zanjirini yuk jo'natuvchi va yuk qabul qiluvchi orasida tuzilishini nazarda tutadi.

Konteyneri tashish – bu O'zbekiston transport bozorida nisbatan yosh yuk yetkazib berish turidir. Shu munosabat bilan temiryo'l transporti vositalari yetarlicha ishlab chiqilmagan va raqobatbardoshlikda bozor talablarini bajarishga intilmoqda. Bu konteynerdan foydalanishga yaroqli mahsulotning katta miqdori transportning boshqa usullari bilan olib ketilishiga olib keladi. Konteyner tipidagi yuklarni temiryo'lida tashishning yuqori raqobatbardoshligi sifatli transport xizmatlarini taqdim etishni ta'minlash, yuk egalarining ehtiyojlarini qondirish va eng foydali ta'sirga ega bo'lish imkonini beradi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun konteynerli yuklarni tashish sohasidagi barqaror pozitsiyalarni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, mamlakatning tranzit va yagona temir yo'l tuzilmasini shakllantirish va elektrlashtirish ishlarni to'liq qamrab olish zarur.

Konteyner yuklarini temiryo'lida tashishning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillari konteynerlarda tovarlarni yetkazib berish tezligi va ishonchliligi. Konteyneri tashish – tovarlarni yetkazib berishning eng tejamli va xavfsiz usullaridan biridir, chunki transport rejimini o'zgartirganda yuklarni qayta kirish bosqichi yo'q. Shuning uchun yukni ortish va tushirish ishlari tezligi tezlashadi, samarasiz tashish vaqtini sezilarli darajada kamayadi va buning natijasida transport xarajati va yuklarni yetkazib berish shartlari sezilarli darajada kamayadi.

Temiryo'l transportida tashish faoliyatining samaradorligi logistika infratuzilmasining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, buning natijasida barcha zarur logistika jarayonlari va moddiy va boshqa turdag'i oqimlar bilan operatsiyalar amalga oshiriladi. Logistika infratuzilmasini shakllantirish muammosi va uni samarali boshqarish qimmat-baho aktiv sifatida qaraladi, ortiqcha qo'shimcha ortiqcha katta miqdordagi xarajatlarni ko'zda tutadi.

Logistika jarayonlarining infratuzilmasini logistika oqimlarining vaqtinchalik o'zgarishi uchun vositalar tizimi va ushbu oqimlarning tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarini ta'minlaydigan korxonalar majmuasi sifatida ko'rish mumkin.

Infratuzilma transport xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarga quyidagi logistik vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- mahsulotni saqlash (ombor binolari, inshootlar, jihozlar);
- mahsulotlarni tashish (transport va manipulyatsiya vositalari, omborlarda, do'konlarda, savdo maydon-chalarida qisqa masofaga ko'chirish)
- mahsulotlarni muhofaza qilish (transport tizimlarini shakllantirishni ta'minlovchi qadoqlash tizimi, ma'lumot uzatish va boshqalar);
- logistika jarayonlari ma'lumotlarini konvertatsiya qilish. ushbu logistik vazifalarni bajarishning sifati va qiymati, asosan, logistika jarayonlari amalga oshiriladigan texnik shartlarga: infratuzilma tarmog'i elementlarining miqdori, hajmi va geografik joylashuviga bog'liq.

Korxonaning logistika tizimi tarkibida logistika infratuzilmasini loyihalashtirish va shakllantirish logistika menejerlari uchun muhim vazifa hisoblanadi. Logistika infratuzilmasi makroiqtisodiy va mikro darajada baholanganadi va shunga muvofiq korxonaning logistika jarayonlari infratuzilmasining tashqi va ichki obyektlarini ajratib turadi.

Logistika infratuzilmasining tashqi obyektlari orasida: yetkazib beruvchi korxonalar, yuk terminallari, logistika operatorlari, logistika xizmat ko'rsatish markazlari, savdo va vositachilik tashkilotlari, chakana savdo do'konlari, jamoat transporti va omborlari, qadoqlash va qadoqlash korxonalari, bojxona, telekommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek, moliyaviy va kredit, yuridik institutlar, ish bilan ta'minlash markazlari, ta'lim va boshqalar kiradi.

Logistika infratuzilmasining ichki obyektlari orasida omborlar, korxonaning ichki yo'llari, ko'chirish uskunalarli, moddiy resurslarni qadoqlash va ma'lumotni almashtirish va boshqalar mavjud. Korxonada logistika infratuzilmasining o'z obyektlari bo'lishi mumkin va ular boshqa tegishli korxona va tashkilotlarning tegishli obyektlaridan foydalanishlari mumkin.

Zamonaviy raqobat muhitida bozor talablarining o'zgarishiga moslashish uchun logistika infratuzilmasini doimiy o'zgartirish zarur. Infratuzilma tarmog'ineng eng yaxshi joylashuvini tanlab olish korxonaning raqobatbar-dosh afzalliklarga ega bo'lishiga birinchi qadam bo'lishi mumkin.



**1-jadval: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ 2021 va 2022-yillarda yuklarni tashish hajmi**

Yuk tashish	O'Ichov birligi		2021-yil	2022-yil	Farqi (+/-)	2021-yilga nisbatan %
Jami	Hajmi (tonnada)		39 063 932	40 585 871	1 521 938	103,9%
	shundan:	kont-r	324 112	341 401	17 289	105,3%
	konteynerlarda	tonna	3 487 701	3 629 751	142 050	104,1%
Import	Hajmi (tonnada)		18 655 385	19 515 852	860 467	104,6%
	shundan:	kont-r	180 271	195 761	15 489	108,6%
	konteynerlarda	tonna	2 197 897	2 487 770	289 873	113,2%
Eksport	Hajmi (tonnada)		11 901 340	10 892 392	-1 008 947	91,5%
	shundan:	kont-r	129 154	132 121	2 967	102,3%
	konteynerlarda	tonna	1 098 819	969 017	-129 801	88,2%
Tranzit	Hajmi (tonnada)		8 507 207	10 177 626	1 670 419	119,6%
	shundan:	kont-r	14 687	13 519	-1 167	92,1%
	konteynerlarda	tonna	190 986	172 964	-18 022	90,6%

2022-yilda "O'zbekiston temiryo'llari" AJda yuk tashish hajmi 2021-yilga nisbatan 3,9 foizga o'sgan bo'lsada, mazkur o'sish asosan import qilingan yuklarni hajmi hissasiga to'g'ri keldi. Umuman olganda, "O'zbekiston temiryo'llari" aksiyadorlik jamiyatni tashkil etilgan kundan buyon yuk tashish hajmi 2,1 marta, yo'lovchi tashish hajmi 2 barobar ko'paygani, temiryo'llar orqali 1,4 milliard tonna yuk tashilib, 350 million yo'lovchi o'z manziliga yetkazilishi ta'minlanmoqda [5].

Shunday qilib, korxonaning logistika infratuzilmasi korxonaning samaradorligi uchun zarur me'zonlarga asosan moddiy oqimlarning tuzilmasi va tezligini tartibga soluvchi va boshqa tartibga soluvchi omillar tizimdir. Samarali logistika infratuzilmasini shakllantirish tamoyillari infratuzilmaning mavjud holatini va mavjud muammolarni hisobga olgan holda dizayn usullarini qo'llashga, uning salohiyatiga ko'ra jami xarajatlarni optimallashirish tamoyili asosida logistika infratuzilmasini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon bozorida esa ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga yuksak talablar qo'yiladi. Bu, birinchi navbatda, har xil transport turlari o'ttasida real raqobat mavjudligi tufayli yuz beradi.

Yuzaga kelgan sharoitda temiryo'l transportida, avtomobil transporti bilan yaqindan hamkorlik qilgan holda, yangicha qo'shimcha tashish turlarini o'zlashtirish va rivojlantirish imkoniyatini tadqiq qilish talab etiladi. Bunday tashishlar mijozlarning taqdim etiladigan xizmatlarning sifati bo'yicha yuksalgan talablarini qondiradigan, har bir transport turining ustun jihatlaridan eng to'liq foydalanadigan, yuk jo'natuvchidan to yuk oluvchigacha bo'lgan uzuksiz transport zanjirini yaratish imkonini beradi. Temiryo'l va avtomobil transporti o'zaro hamkorligida ulardan birinchisining ishonchliligi, tezligi va tashish imkoniyati ikkinchisining moslashuvchanligi va jadalligi bilan uyg'unlashadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan bu tashishlar sifati va ishonchliligini ta'minlashga intilayotgan yuk egalari, hamda avtotransport korxonalari tijorat faoliyatini rivojlantirish yo'lida samarali bosqich bo'lishi lozim.

Ma'lumki, Respublikamizda 2016-yilda Angren – Pop elektralashtirilgan yangi temiryo'l linyasini qurilib bitkazilishi bilan mamlakat temiryo'l tarmog'ining yagona tizimi tashkil etilishi o'z nihoyasiga yetdi va bugungi kunda temiryo'lida tashishlarni amalga oshiruvchi korxonalar oldiga yangicha ishlash tizimini joriy etilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ularni strategik jihatdan rivojlantirish va shu bilan jahondagi tovarlar bozorida munosib o'ringa ega bo'lish uchun "O'ztemiryo'l konteyner" aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini takomillmshtirish va uni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Temir yo'l tizimida joriy etilishi kutilayotgan o'zgarishlarni hisobla olgan holda "O'ztemiryo'l konteyner" aksiyadorlik jamiyatni oldiga rivojlanitirish strategiyasini ishlab chiqishda quyidagi ustuvor vazifalar qo'yiladi:

Birinchidan, "O'ztemiryo'l konteyner" aksiyadorlik jamiyatni strategiyasini qayta ko'rib chiqib unga quyidagi o'zgartirishlarni kiritish:

- marketing strategiyasi;
- tashkiliy-texnik strategiya;
- moliyaviy-iqtisodiy strategiya;
- ijtimoiy-ekologik strategiya;
- funktsional strategiya kabi alohida bo'limlarga ajratilgan holda qayta strategiyani tuzish.



Ikkinchidan, strategiyada amalga oshirilishi rejalshtirilgan loyihalarning qurilish va xaridlar bo'limiga ajratilgan holda 2033-yilgacha bo'lgan 15 yillik loyihalar dasturini tuzish ilovada keltirilgan. Ushbu dasturni tuzishda hududlardagi talabdan kelib chiqqan holda yuk aylanmasi hajmiga qaram yuk saqlash omborxonalarini qurish ishlari ko'zda tutilgan.

- Uchinchidan, jamiyatni rivojlantirish uchun kompleks dastur ishlab chiqish una quyidagilar ko'zda tutiladi:
- jamiyatda mavjud barcha ishlab chiqarish texnologiyalarini to'liq inventaizatsiyadan o'tkazish, energotejamkorligi past bo'lgan taxnikalardan foydalanishni cheklash yoki umuman ekspluatatsiyadan chiqarish;
  - ishchi xodimlar haqida mijozlar fikrini o'rghanish, kadrlar taqsimotini qayta ko'rib chiqish, bunda yesh kadrlardan foydalanishga e'tibor qaratish.
  - biznes reja va yaratilgan strategiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va ularga baho berish tizimini joriy etish, samarasiz rejalar va strategiyadan voz kechish.
  - kadrlar bilan ta'minlanganlik holatini yaxshilash, yangi texnologiyalarda ishlovchi kadrlarni qayta tayyorlash;
  - yangi xizmat turlari;
  - konteynerlarni (yuklar bilan) vaznni o'lchash;
  - konteynerlarning holati (qayerdaligi) haqida ma'lumot beruvchi tizimni yaratish;
  - konteynerlar egalarining ishtirokisiz (mobilniy konteynerniy operator) tashuvlarni buyurtma asosida amalga oshirish;
  - uzoq masofalarga konteynerlarni avtotransport vositalarida yetkazib berish;
  - muzlatkichli omborxonalarda saqlash;
  - konteynerli poezd tarkiblarini tuzish bo'yicha mijozlar uchun axborot marakazini yaratish va axborotlarni onlaysa tarzda joylashtirib borish xizmatlarini joriy qilish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent: "O'zbekiston", 2016
2. Моисеева Н. К. Экономические основы логистики. Учебник. – М.: Инфра-М, 2008. – 528 с.
3. Коэлова И. Н., Перминова А. А. Конкурентоспособность и влияющие на нее факторы на рынке железнодорожных перевозок контейнеропригодных грузов. Вестник Университета № 11, 2015.
4. Правдина Н. В. Транспортное обеспечение коммерческой деятельности Ульяновск: УлГТУ, 2007. – 95 с.
5. "O'zbekiston temiryo'llari" AJ rasmiy sayti ma'mulotlari.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.